

## Strengthening State Control over the Implementation of Legislative Acts

**Yangiboyev Norquvvat Qulnazarovich**

Lecturer, Department of Criminal Law and Civil Procedure Faculty of Law  
Termiz State University

**Rustamova Elnora Asliddin qizi**

**Umirov Bobomurod Xo'shmurod o'g'li**

**Sanginova Gulnoza Saidumar qizi**

Students, Faculty of Law Termiz State University

### Abstract

This article analyzes the theoretical and legal foundations, as well as practical mechanisms, for strengthening state control over the implementation of legislative acts. In particular, it highlights issues related to ensuring the supremacy of law in the activities of state bodies, strengthening executive discipline, and improving accountability measures. The article also examines the essence of the control institution, its types and forms, as well as ways to increase the effectiveness of control through the use of digital technologies in modern governance systems.

**Keywords:** legislative acts of the President of the Republic of Uzbekistan, legislative documents of the Oliy Majlis, legal acts of the Cabinet of Ministers, parliamentary control, mediation, alternative dispute resolution.

### **Qonun hujjatlari ijrosi ustidan davlat nazoratini kuchaytirish**

Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti

Jinoyat huquqi va fuqarolik protsessi kafedrası o'qituvchisi

**Yangiboyev Norquvvat Qulnazarovich**

Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti talbalari

**Rustamova Elnora Asliddin qizi**

Umirov Bobomurod Xo'shmurod o'g'li

Sanginova Gulnoza saidumar qizi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada qonun hujjatlari ijrosi ustidan davlat nazoratini kuchaytirishning nazariy-huquqiy asoslari va amaliy mexanizmlari tahlil etiladi. Xususan, davlat organlari faoliyatida qonun ustuvorligini ta'minlash, ijro intizomini mustahkamlash hamda javobgarlik choralarini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Maqolada nazorat institutining mohiyati, uning turlari va shakllari, shuningdek, zamonaviy boshqaruv tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali nazorat samaradorligini oshirish yo'llari ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** O'zbekiston Respublikasi Prezident qonun hujjatlari, Oliy Majlis qonunchilik hujjatlari, Vazirlar Mahkamasining qonun hujjatlari, parlament nazorati, mediatsiya va alternativ nizolar.

Qonun hujjatlari – bu davlat tomonidan qabul qilingan va jamiyat hayotini tartibga solishga yo'naltirilgan rasmiy yozma hujjatlar bo'lib, ular huquqiy normalarni belgilaydi va fuqarolar, tashkilotlar hamda davlat organlari uchun majburiy bo'lgan qoidalarni o'rnatadi. Bu hujjatlar davlat taraqqiyotida muhim o'rin tutadi, chunki ular ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalarda tartibni ta'minlash, adolatni o'rnatish va fuqarolarning huquqlarini himoya qilishda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. Davlat nazorati qonun hujjatlari ijrosini ta'minlashda katta ahamiyatga ega, chunki ularning amalga oshirilishini nazorat qilish va samaradorligini oshirish orqali huquqiy tartibni mustahkamlashga yordam beradi. Shuningdek, davlat nazorati xalqqa taqdim etilayotgan xizmatlarning sifatini oshirishga va qonunlarni buzish holatlarini oldini olishga imkon yaratadi.

Qonunlar, odatda, qonunchilik tashabbusi huquqiga ega bo'lgan tashkilotlar va organlar tomonidan ishlab chiqiladi. Qonunchilik tashabbusi – bu qonun loyihalarini qonun chiqaruvchi organlar muhokamasiga kiritish huquqidir. Ushbu huquqqa ega

organlar qonun loyihalarini ko‘rib chiqishga va shu loyha bo‘yicha qaror qabul qilishga majburdirlar.

Zamonaviy davlatlarda qonunchilik tashabbusi huquqi, asosan, parlament deputatlari, parlament qo‘mitalari, hukumat, davlat rahbari va ba'zi alohida idoralarga beriladi. Qonunchilik tashabbusi huquqi qaysi idoralarga va shaxslarga tegishli ekanligini Konstitutsiya belgilaydi. Misol uchun, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga ko‘ra, Prezident, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari, Vazirlar Mahkamasi va davlat hokimiyatining oliy vakillik organi bu huquqqa ega. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud va Bosh prokurori ham o‘z vakolatlari doirasida qonunchilik tashabbusi huquqiga ega. Bu huquq davlatning qonun chiqarish jarayonining muhim qismi bo‘lib, davlatni boshqarishning samarali amalga oshirilishiga yordam beradi.




Qonun hujjatlari ijrosini ta'minlash – bu qabul qilingan qarorlar va me'yoriy-huquqiy hujjatlarning amalda bajarilishini nazorat qilish va ta'minlash jarayonidir. Bu jarayon quyidagi asosiy bosqichlardan tashkil topgan.

Tushuntirish va targ'ibot – Yangi qonun hujjatlari va qarorlar haqida aholini xabardor qilish, ularning mazmuni va ahamiyatini tushuntirish. Bu bosqichda, qonunlarning amalga oshirilishi uchun keng ommani jalb qilish zarur.

Ijro mexanizmlarini ishlab chiqish – Qonun hujjatlarini bajarish uchun tegishli mexanizmlar va tartiblar ishlab chiqiladi. Bu, amalda qonunlar va qarorlarning to'g'ri va samarali bajarilishi uchun zarur bo'lgan resurslar va chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi.

Monitoring va nazorat – Qonunlar va qarorlarning ijrosi doimiy ravishda kuzatilib



boriladi. Nazorat organlari qonun ijrosining samaradorligini baholash, yuzaga kelgan muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish uchun javobgarlikni ta'minlashadi.

1. Xisobot va tahlil – Ijro jarayonining natijalari bo'yicha xisobotlar tayyorlanadi va tahlil qilinadi. Bu bosqichda qonun ijrosidagi xatoliklar va kamchiliklar aniqlanib, zarur tuzatishlar kiritish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Tahlillarga ko'ra, 2022-yil 2-chorak yakuniga qadar (2022-yil 23-iyun holatiga) viloyat bo'yicha ijro.gov.uz ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi orqali ijro uchun jami 1068 ta O'zbekiston Respublikasi hujjatlari kelib tushgan bo'lib, shulardan: farmon -164 ta, qaror -581 ta, farmoyish-27 ta, bayon-296 tani tashkil qilgan.<sup>1</sup>

Qonunchilik tashabbusi huquqi qonun loyihasini qonunchilik tashabbusi huquqi subyektlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish orqali amalga oshiriladi.<sup>2</sup>

O'zbekiston Respublikasining saylov huquqiga ega bo'lgan, yuz ming nafardan kam bo'lmagan fuqarolari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman), O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi qonunchilik takliflarini qonunchilik tashabbusi tartibida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritishga haqli.

O'zbekiston Respublikasida, qonun hujjatlari ijrosini ta'minlash jarayonida Prezident, Oliy Majlis va Vazirlar Mahkamasining alohida o'rnini bor. Prezident bu jarayonning umumiy nazoratini olib boradi va uning samarali amalga oshirilishini ta'minlaydi. Oliy Majlis qonunlarni qabul qilishdan tashqari, ularning ijrosi bo'yicha tahlil va nazoratni amalga oshiradi. Vazirlar Mahkamasi esa qonun hujjatlarini amalda bajarish uchun ijro etuvchi hokimiyatning asosiy organi bo'lib, mexanizmlar va resurslarni yaratishda muhim rol o'ynaydi.

Prezidentning qonunlarni tasdiqlash va veto huquqi, uning qonun ijrosini ta'minlashdagi muhim rolini aks ettiradi. Prezident qonunlarni yoki qonun loyihalarini konstitutsiyaga, xalqaro huquqqa va davlat manfaatlariga zid deb hisoblagan holda veto

<sup>1</sup> <https://ijro.uz> 2022-yil 23-iyun holatiga ko'ra kelib tushgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjatlari soni

<sup>2</sup> <https://lex.uz> 30.04.2023.O'zbekiston Respublikasi Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi.

qo'yish huquqiga ega. Bu holat Prezidentning mamlakatda qonun hujjatlarining ijrosini ta'minlashda faol ishtirok etishini ko'rsatadi. Bunda Prezidentning Bosh prokuratura, Adliya vazirligi kabi nazorat organlari orqali qonun ijrosini kuzatish va uning samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, Prezident davlat tizimlarining qonunlarga to'liq va to'g'ri rioya qilishini ta'minlashga qaratilgan siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirishda ham o'zining mas'uliyatini bajaradi.

Qonunlarning ijrosi va huquqiy nazoratni amalga oshirishda Oliy Majlisning roli ham muhim. Oliy Majlis, Prezident tomonidan taqdim etilgan qonun loyihalari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarni ko'rib chiqish, muhokama qilish va tasdiqlash bilan shug'ullanadi. Oliy Majlis, shuningdek, qonunlarning bajarilishini nazorat qilish huquqiga ega. Agar hujjatlar ijro etilmasa yoki buzilsa, Oliy Majlis tegishli choralar ko'rish vakolatiga ega.<sup>3</sup>

Oliy Majlis O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdim etgan qonun loyihalari va boshqa normativ huquqiy hujjatlarni muhokama qilish va tasdiqlash bilan shug'ullanadi. Ushbu jarayon orqali mamlakatda yangi qonunlar va normativ hujjatlar ishlab chiqiladi, mavjud qonunlarga o'zgartirishlar kiritiladi. Oliy Majlisning bu faoliyati jamiyatni yanada rivojlantirish, davlatning huquqiy tizimini mustahkamlash va fuqarolarning huquqlarini ta'minlashga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, Oliy Majlis davlat byudjeti va uning ijrosini ko'rib chiqadi. Bu jarayon ajratilgan mablag'larning qanday sarflanishini tekshirishni, shuningdek, davlat byudjeti yo'naltirilgan sohalar bo'yicha ajratilgan mablag'larning qonunlarga muvofiqligini nazorat qilishni o'z ichiga oladi. Davlat byudjeti tasdiqlanishi orqali Oliy Majlis iqtisodiy rivojlanishning asosiy yo'nalishlarini belgilab beradi va uning ijrosini nazorat qiladi.

---

<sup>3</sup> <https://kun.uz>

Oliy Majlisning yana bir muhim vazifasi — hukumat faoliyatiga nazorat qilishdir. Oliy Majlis qonun hujjatlarining ijrosini va davlat organlarining faoliyatini doimiy ravishda tekshirib boradi. Agar qonunlar yoki boshqa normativ hujjatlar buzilsa, Oliy Majlis tegishli choralarni ko'radi. Bu jarayon davlat organlarining qonunlarga to'liq rioya qilishini ta'minlash, jamiyatda huquqiy tartibni saqlash va adolatni qaror toptirishda muhim rol o'ynaydi.

Vazirlar Mahkamasi esa, hukumat organi sifatida ijro hokimiyatining faoliyatini nazorat qiladi. Vazirlar Mahkamasi o'ziga bo'ysunuvchi vazirliklar va boshqa davlat idoralarning faoliyatini qonunlarga va Prezident farmonlariga muvofiqligini tekshiradi. Har bir vazirlik va davlat agentligi o'z faoliyatini Vazirlar Mahkamasiga hisobot berib amalga oshiradi. Bu holatda, hukumatning barcha organlari o'rtasida samarali hamkorlik va qonun ijrosini ta'minlash uchun muntazam nazorat mexanizmlarini yo'lga qo'yish zarur.

Vazirlar Mahkamasi, Prezident va Oliy Majlis tomonidan tasdiqlangan strategik dasturlarni, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy loyihalarni amalga oshirishni nazorat qiladi. Vazirlar Mahkamasi bunday dasturlarning muvaffaqiyatli bajarilishini ta'minlash uchun mas'uldir va bu jarayonda qonunlarga to'liq rioya qilinishini kuzatib boradi. Dasturlarni amalga oshirish jarayonida har bir davlat organining faoliyati belgilangan qonunlarga muvofiq bo'lishi zarur.

Bundan tashqari, Vazirlar Mahkamasi davlat organlarining qonun hujjatlarining ijrosi bo'yicha monitoring olib boradi va muntazam ravishda hisobotlarni Oliy Majlis va Prezidentga taqdim etadi. Ushbu monitoring jarayoni davlat organlarining faoliyatini yanada shaffof qilishga yordam beradi, shuningdek, muvofiqlikni ta'minlash va zarur bo'lsa, tuzatishlar kiritishga imkon yaratadi. Hisobotlar orqali Vazirlar Mahkamasi amalga oshirilgan ishlarning holatini baholab, davlat organlarining samaradorligini oshirishga ko'maklashadi.

Qonun hujjatlari ustidan davlat nazoratini amalga oshirishda jahonda mavjud bo'lgan tajribalardan foydalanish, davlatlar huquqiy tizimlarini yaxshilashda va



qonunlarga rioya etilishini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Ko'plab davlatlar o'zlarining qonun hujjatlarining samarali ijrosini ta'minlash uchun xalqaro tajribalardan o'rganib, yangi yondashuvlarni joriy qilmoqda. Misol uchun, ba'zi mamlakatlarda mustahkam nazorat mexanizmlari va shaffof monitoring tizimlari orqali qonun ijrosi doimiy ravishda kuzatiladi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, samarali nazorat tizimlari davlatning qonunlarga bo'lgan hurmatini oshiradi, qonun ijrosining shaffofligini ta'minlaydi va jamiyatda adolat va tartibni mustahkamlaydi. <sup>4</sup>Bu yondashuvlar davlatlarni o'z huquqiy tizimlarini yanada rivojlantirishga, fuqarolarning huquq va erkinliklarini samarali himoya qilishga imkon beradi. Quyida ba'zi rivojlangan mamlakatlarning tajribasi keltirilgan:

AQSHda qonun hujjatlari ustidan davlat nazorati uchun bir nechta mexanizm mavjud: Federal va shtat tekshiruv organlari: AQSHda qonun ijrosini ta'minlash uchun turli federal va shtat darajasidagi nazorat organlari faoliyat yuritadi. Masalan, Federal savdo komissiyasi (FTC), Xalqaro savdo komissiyasi (ITC) va Federal qidiruv byurosi (FBI) kabi tashkilotlar o'z sohalaridagi qonunlarga rioya etilishini nazorat qiladi.

Midiatsiya va alternativ nizolarni hal etish: AQSHda sud tizimidan tashqari nizolarni hal qilish uchun midiatsiya va boshqa vositalar keng qo'llaniladi, bu esa tizimning samaradorligini oshiradi.

---

<sup>4</sup> <https://daryo.uz>

Buyuk Britaniya qonun hujjatlari ustidan davlat nazoratini kuchaytirish uchun bir qator vositalar qo'llaniladi: Parlament nazorati; Buyuk Britaniyada parlament qonun ijrosini nazorat qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Parlamentning turli komissiyalari, jumladan, Yuqori palata ( Lords) qonunlar va normativ hujjatlarning amaliyotini tekshiradi. Shuningdek, mustaqil audit va hisob-kitob organlari mavjud. Buyuk Britaniya Milliy audit ofisi (NAO) va Komptroller va Auditor-General davlat xarajatlarini va qonun ijrosini audit qiladi.

Germaniyada qonun hujjatlari ustidan davlat nazorati asosiy vositalari. Federal Kengash (Bundesrat) va Parlament qonunlarning ijrosi va amaldagi huquqiy tizimni muntazam ravishda nazorat qiladi. Shuningdek, Germaniyaning mustaqil nazorat organlari sifatida quyidagilarni olsak: Germaniya Federal Audit ofisi (Bundesrechnungshof) va boshqa mustaqil organlar davlatning moliyaviy faoliyatini va qonun ijrosini nazorat qiladi. Shu o'rinda, Germaniya hukumatining hisoboti va javobgarliklar masalalari ham muhim o'rin tutadi. Germaniya hukumati va davlat idoralari tomonidan o'z faoliyati va qarorlar to'g'risida muntazam hisobotlar taqdim etilishi talab qilinadi.

Kanadada qonun hujjatlari ijrosi ustidan nazorat qilish uchun quyidagi mexanizmlar ishlab chiqilgan. 1. Parlament nazorati; 2. Mustaqil nazorat organlari; 3. Texnologiya va elektron nazorat. Mustaqil nazorat organlari sifatida Kanadada milliy audit byurosi davlat xarajatlarini va qonunlarning ijrosini tekshiradi.

Kanada qonun hujjatlari ijrosini ta'minlash uchun axborot texnologiyalardan keng foydalanadi, misol uchun, davlatning onlayn hisobot tizimlari orqali qonun ijrosini kuzatish imkoniyatini yaratadi.

Shu o'rinda aytishimiz mumkinki, qonun hujjatlari ijrosini ta'minlash jarayonida bir qancha yutuqlarimiz mavjud. Bularga misol qilib; Elektron hujjat almashinuvi tizimi davlat organlari va tashkilotlar o'rtasida hujjatlar almashinuvi jarayonlarini

raqamlashtirgan holda, qonun hujjatlari ijrosini samarali kuzatish imkoniyatlarini yaratadi. Ushbu tizim bir qancha afzaliklarga ega.

Hujjatlar elektron shaklda ro'yxatga olinadi, bu esa ularga oson kirish imkonini beradi. Shuningdek, hujjatlar orqali qonun ijrosi samarali monitoring qilinadi, va bu jarayon turli darajadagi nazorat organlariga ochiq va shaffof bo'lib qoladi. Elektron hujjat almashinuvi tezroq amalga oshiriladi, bu esa boshqaruv jarayonlarini soddalashtirishga yordam beradi. An'anaviy xizmatlaridan foydalanishning oldini olish orqali vaqt va moliyaviy xarajatlar sezilarli darajada kamayadi. Hujjatlar xavfsiz tarzda yuboriladi va oluvchilarga yetkaziladi, bu esa ularning qayta ishlanishi yoki yo'qolish ehtimolini kamaytiradi. Elektron tizim orqali hujjatlarni qayta ishlashda yuqori darajada ishonchlilik ta'minlanadi.

Elektron tizim orqali qonun hujjatlari ijrosini real vaqtda kuzatish va tahlil qilish mumkin bo'ladi. Bu, ayniqsa, ijro etilmagan yoki kechiktirilgan hujjatlar bo'yicha tezkor axborot olishni ta'minlaydi. Elektron hujjat almashinuvi tizimi boshqa davlatlar bilan hujjatlar almashishni osonlashtiradi, bu esa xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga yordam beradi. Shu tarzda, elektron hujjat almashinuvi tizimi qonun hujjatlari ijrosini samarali kuzatish va davlat boshqaruvini yanada yaxshilash imkoniyatlarini yaratadi.

Hamda qonun hujjatlari ijrosini ta'minlashdagi muammolari ham mavjud. Bularga misol qilib quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

Ba'zi hollarda, qonunlarni buzgan shaxslar yoki tashkilotlar uchun jazolar yengil bo'lib, bu holat qonun ijrosini zaiflashtiradi. Misol uchun, korrupsiyani oldini olish uchun chiqarilgan qonunlar amalda jazolarni yengillashtirish yoki majburiy jazo choralarining amalga oshmasligi tufayli samarali ishlamas mumkin.

Qonunlarni ijro etishda zarur bo'lgan infratuzilma, resurslar yoki malakali kadrlar etishmasligi ham muammo bo'lishi mumkin. Masalan, sudlar yoki huquqni muhofaza

qilish organlari kerakli texnik vositalar, malakali mutaxassislar yoki moliyaviy resurslarga ega bo'lmasligi mumkin, bu esa qonunlarni amalga oshirishni qiyinlashtiradi.

**Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki**, Qonun hujjatlari jamiyatni tartibga solishda, ijtimoiy adolatni ta'minlashda va fuqarolarning huquqlarini himoya qilishda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Ularning samarali ijrosi davlatning huquqiy tizimining mustahkamlanishiga va fuqarolarga xizmat ko'rsatishning sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Qonun hujjatlari ijrosini ta'minlash jarayoni bir nechta bosqichlarni o'z ichiga oladi: tushuntirish, ijro mexanizmlarini ishlab chiqish, monitoring va nazorat, hamda xisobot va tahlil qilish. Ushbu jarayonlarni amalga oshirishda davlat organlarining, jumladan Prezident, Oliy Majlis va Vazirlar Mahkamasining ahamiyati katta.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi 30.04.2023 yil.
2. <https://ijro.uz> 2022-yil 23-iyun holatiga ko'ra kelib tushgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjatlari soni.
3. <https://daryo.uz>
4. "Huquqshunoslikning umumiy asoslari" (muallif: I.M.Yusupov)- Huquqshunoslikning umumiy tamoyillari va qonun hujjatlari ustidan davlat nazorati.
5. <https://kun.uz>